

MIGRATSIYA TURLARI**M. F. Salohiddinova***Tarix mutaxassisligi I kurs magistranti Farg'ona Davlat Universiteti O'zbekiston, Farg'ona***ARTICLE INFO.****Kalit so'zlar:**

migratsiya, ichki migratsiya, tashqi migratsiya, aholi soni, migratsiya xususiyatlari.

Annotatsiya

Maqolada migratsiya, uning turlari to'g'risidagi m'lumotlar tahlil qilingan. Migratsiya tashqi va ichki migratsiyaga taqsimlanishi, mamlakatlar aholisining soni va tarkibiga bo'ladigan ta'siri nuqtai nazardan tashqi migratsiyalarining ahamiyati hamda tashqi migratsiya katta hajmga ega mamlakatlarda, uning aholi soni va tarkibiga bo'lgan ta'siri tadqiq etilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Migratsiya jarayoni aholi hududiy harakatining asosiy turi bo'lib, inson bilan tabiat o'rtasidagi aloqadorlik vujudga kelgandan buyon shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Aholi migratsiyasi buyuk geografik kashfiyotlar davridan boshlab keng miqyosda amalga oshmoqda. Migratsiya tashqi va ichki migratsiyaga taqsimlanadi. Mamlakatlar aholisining soni va tarkibiga bo'ladigan ta'siri nuqtai nazardan tashqi migratsiyalarining ahamiyati beqiyosdir. Tashqi migratsiya katta hajmga ega mamlakatlarda, uning aholi soni va tarkibiga bo'lgan ta'siri sezilarli oqibatlarga olib kelishi mumkin. AQSh, Kanada, Avstraliya va boshqa qator mamlakatlar tarixda migratsiya salbdosining ahamiyati tabiiy o'sishi, jumladan ustun bo'lgan ayrim davrlar kuzatishganligini ta'kidlab o'tish joizdir¹. Hozirgi vaqtida ham mazkur mamlakatlarda migratsiya saldosи aholi sonining o'sishida muhim omil bo'lib hisoblanadi. Isroil davlatida esa migratsiya saldosи aholi soni o'sishining deyarli 2/3 qismini ta'minlamoqda. Yuqoridagi mamlakatlar aholining ko'chib kelishi bo'yicha yetakchi hisoblansa, qator boshqa mamlakatlar, chunonchi, Irlandiya aholisining ko'chib kelishi bo'yicha dunyoda mashhur bo'lib qolgan. Tashqi migratsiyalar o'zlarining xususiyatlari, sabablari, hududiy qamrovi davom etishi bo'yicha bir-biridan farq qiladi.

Migratsiya xususiyatlari to'g'risida so'z yuritganda, avvalom bor, xohishiga ko'ra va majburiy migratsiyalar nazarda tutiladi. Tashqi migratsiya asosan iqtisodiy sabablar bilan bog'langan. Bunda yangi yerlarni o'zlashtirish maqsadida hamda ishchi kuchini shartnomalar bo'yicha boshqa mamlakatlarga yuborish bilan bog'liq migratsiyalar katta rolб o'ynaganligini ta'kidlab o'tish joizdir. Hududiy qamroviga qarab materiklarga va materik ichidagi migratsiyalarini ajratish qabul qilingan. Hozirgi vaqtida ikkinchi turdagи migratsiyalar asosiy ahamiyat kasb etadi. Davom etishi bo'yicha doimiy vaqtinchalik va mavsumiy migratsiya turlari mavjud. Shartnomada asosida amalga oshirilayotgan migratsiyalar vaqtinchalik migratsiyalar deb ataladi. Doimiy migratsiyalar uy joyi va ish joyining

¹ Migration processes among developing countries: the Middle East.-USA: Massachusetts Institute of Technology, 1998.- P.24.

tamomila o'zgarishi bilan bog'liq aholi ko'chishlari bilan bog'liq bo'lib, u migratsiyalar ichida asosiy o'rinni egallaydi. Insoniyat xo'jalik va ijtimoiy-madaniy faoliyatida ro'y berayotgan internatsionallashuv va demokratsiyalashuv jarayonlari, shuningdek, mamlakatlararo, millatlararo ayrim ziddiyatlar, to'qnashuvlar, favqulodda vaziyatlar va tabiiy ofatlar oqibatida aholi hamda mehnat resurslarining mamlakat ichida mamlakatlararo keng miqyosda bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishi ro'y beradi. Bular bir tomondan, jahon sivilizatsiyalash va xalqaro mehnat bozorlari, turar joy va ish joy tashlash uchun yaratib bergen huquq va imkoniyatlaridan foydalanuvchi ko'pchilik migratsiyalardan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'z xohishi bilan emas, balki sharoit taqozosini bilan tug'ilib o'sgan joyini tashlab ketishga majbur bo'lган qochoqlar hamda zo'raki migrantlardan iboratdir. Ayrim tarixiy yerlarda migrantlar oqimining ko'lami hamda ahvolining murakkabligini juda katta muammolarni yuzaga keltiradi. Bu muammolarni yechish esa keng miqyosda xalqaro hamkorlikni taqozo etadi².

Xalqaro mehnat taqsimoti mammalakatlar o'rtasidagi mehnat taqsimoti rivojlanishining oliy bosqichi bo'lib, u biror bir mammalakatda muayyan mahsulotni ishlab chiqarishda barqaror imkoniyatlari mavjud bo'lishini turlicha miqdor va malakaga ega bo'lган mehnat resurslari bo'lishini taqozo etadi. Xalqaro mehnat taqsimoti inson faoliyatining turlarga bo'linishi deb keng ma'noda tushunish, bu sohada keyinroq yuz beradigan kooperatsiyalash xalqaro mehnat taqsimotidan kelib chiqqan hamda mammalakatlar o'rtasida o'zları eng yuqori samara bilan ishlab chiqargan mahsulotlarini mutassil ayriboshlashni inkor etmaydi. Ana shunday kooperatsiya ikki ko'rinishda mehnat taqsimotiga ko'ra ishlab chiqarilgan mahsulotlari xalqaro miqyosda ayriboshlash (xalqaro savdo) yoki mehnat kuchlarining davlatlararo ko'chib o'tishi ya'ni xalqaro mehnat migratsiyalash shaklida namoyon bo'lishi mumkin.

Aholi va mehnat resurslarining mammalakatlararo migratsiyalash ishchi kuchini qabul qiluvchi va uni chetga chiqaruvchi mammalakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotda darajalarida hamda aholining tabiiy o'sish sur'atlarida anchagina tavofutlar mavjud bo'lган chog'da ro'y beradi. AQSh, Kanada, Avstraliya kabi yuqori darajada rivojlangan mammalakatlar, G'arbiy Yevropa mammalakatlarning ko'pchiligi shuningdek, neftdan katta daromad olib, iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan mammalakatlar³ (Saudiya Arabistoni, Bahrayn, Quvayt, BAA va boshq.) immigratsiyalash geografik markazlari hisoblanadi.

U bir davlatning mintaqalari o'rtasida ro'y beradigan ishchi kuchi migratsiyalashda va bir necha mammalakatlarni qamrab oladigan tashqi migratsiyadan iborat. Xalqaro iqtisodiyot fani tashqi migratsiya va uning sabablari bilan shug'ullanadi.

Tashqi migratsiyaning asosiy sabablari iqtisodiy qiyinchilik, siyosiy beqarorlik, milliy-diniy nizo va urushlardir. Ichki migratsiyaning sabablari ham shunga o'xshab ketadi va quyidagilardan iborat: iqtisodiy qiyinchilik, mavsumiy ish, milliy nizolar, urushlar va boshqalar.

Aholining bir davlatdan ikkinchi bir davlatga va bir davlatning ichida bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chib yurishini boshqarish migratsiya oqimi deb ataladi. Migratsiya oqimi mamlakat yoki rayonlar aholisining soniga sezilarli ta'sir etishi mumkin. Insoniyat tarixi davomida juda ko'p ommaviy tashqi va ichki migratsiyalar sodir bo'lган. Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin asosiy migratsiya oqimi Amerika, Avstraliya hamda boshqa yangi kashf qilingan yerlar tomon bo'lган. Ommaviy ichki migratsiya davlat dasturi asosida amalga oshiriladi. Masalan, Mirzacho'lning Qozog'iston qo'riq yerlarining o'zlashtirilishi va h.k.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi bundan bir necha yil ilgari paydo bo'lган hamda shundan buyon bu borada jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Xalqaro migratsiya muammolari 60-yillarning oxirida iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liq faol o'rganishni boshladi. Natijada, asosan shunday xulosaga keldiki, ishchi kuchining xalqaro harakati ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida iqtisodiy rivojlanishi sur'atlariga

² Migration processes among developing countries: the Middle East.-USA: Massachusetts Institute of Technology, 1998.- P.25.

³ Martin Baldwin-Edwards. Migration in the Middle East and Mediterranean.-Athens: GCIM, 2005.- P.8.

ta'sir qiladi, bu harakatning sababi esa turli mamlakatlarda, mehnatga haq to'lash darajasi turlicha ekanligidan iborat. Har bir kishi o'z mehnatining eng so'nggi samarasini oladi va iste'mol qiladi, degan aqidaga asoslanuvchi neoklassik nazariya tarafdarlarining emigratsiya qabul qiluvchi mamlakat farovonligini oshirishga xizmat qiladi, ayni bir paytda emigratsiyaning asl vatani bo'lган davlatda iqtisodiy rivojlanish saqlanib qoladi yoki hech bo'lmasa pasaymaydi.

Neoklassik tarafdarlari ishchi kuchini, ayniqsa, yuqori malakali xodimlarni eksport qiluvchi mamlakatda migratsiya mumkinligini e'tirof etishadi. Shu munosabat bilan «aqliy talofot»ga soliq solish va undan keladigan daromadni BMT ixtiyoriga o'tkazib, ulardan rivojlanish maqsadlarida foydalanish g'oyasi keng muhokama etildi⁴. Keyingi yillarda jamlashishga mamlakat iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida qarashlik ustun kela boshladi. Jamlangan inson potentsiali iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili ekanligidan kelib chiqilsa, xalqaro mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy rivojlanish borasidagi sur'atlar turlicha ekanligining sabablaridan biri ham inson salohiyati deb hisoblash mumkin. Xalqaro migrantlar asosan 5 toifaga bo'linadi:

1. Mamlakatga oshkora kiritilgan immigrantlar va noimmigrantlar. Ko'pdan beri immigrantlarni qabul qilib kelayotgan mamlakatlar uchun 80-90-yillar immigratsiya yuqori pog'onaga ko'tarilgan davr bo'ldi;
2. Sharhnomalar bo'yicha ishlaydigan xizmatchi migrantlar. 90-yillarning oxirida bularning soni dunyo bo'yicha 25 mln. kishidan ko'proq edi⁵. Ko'pincha mamlakatlar chet el ishchi kuchiga muhtojlik sezadi. Bu hollarda ishchi kuchi serob bo'lган mamlakatlar: masalan, Osiyoning ba'zi mintaqalari, ya'ni sharqdagi qator mamlakatlar bilan shunday sharhnomalar haqida kelishib olishadi;
3. Yashirincha kelgan immigrantlar. 1990-yillarning oxirida bularning soni 30 mln. kishidan ortiq edi. Deyarli barcha sanoat rivojlangan mamlakatlarda yashirin immigrantlar mavjud. Ularning bir qismi chegara orqali o'tsa, boshqalari viza muddati tugagandan keyin begona mamlakatdan chiqib ketmaydi: bundaylar odatda, eng kam ish haqi to'lanadigan ish joylariga yollanadilar.
4. Boshpana so'ragan shaxslar. Bunday toifadagi migrantlar soni 80-yillargacha juda oz bo'lib, keyinchalik ancha ko'paydi. 90-yillar oxiriga kelib, 1 mln. kishini tashkil etdi. Shaxslar siyosiy sabablarga ko'ra, iqtisodiy ahvol tufayli boshpana so'raydi.
5. Qochoqlar. BMT ma'lumotiga ko'ra, 90-yillar oxiriga kelib, dunyoda qochoqlar soni 22 mln. dan ko'proqni tashkil etgan (bulardan qariyb 4 mln. kishi o'z vataniga qaytib kelgan bo'lsa ham BMT homiyligida yashaydi). Qochoqlarning ko'pchiligi bugungi kunda maxsus lagerlarda istiqomat qiladi. Bu lagerlar BMT yoki xususiy agentliklar homiyligidadir. Ma'lumotlarga qaraganda, ortig'i bir foizdan kamginasi rivojlangan g'arb mamlakatlaridan boshpana topgan.

Tashqi va ichki migratsiyalar bilan urbanizatsiya jarayoni uzviy bog'liq. Urbanizatsiyaning geologik mohiyatini quyidagi misollarda ifodalash mumkin. Urbanizatsiyalashgan hududlarda jahon aholisining 45% dan ziyod qismi istiqomat qiladi va yalpi ichki mahsulotning 80 foizi ishlab chiqariladi. Shu vaqtning o'zida atmosfera va gidrosferaga chiqarilayotgan zaharli chiqindi va gazlarning 80% ham ushbu hududga to'g'ri keladi.

Urbanizatsiya jarayoni shaharlar soni va shaharlar aholisining miqdori va ulushining o'sishini, shaharlar bilan bog'liq murakkab tarmoqlar va tizimlarning shakllanishi va rivojlanishini anglatadi⁶. Demak, urbanizatsiya kishilik hayotida shaharlar ahamiyatining beqiyos oshishini, jamiyatni aholining mehnat xususiyati, turmush tarzi va madaniyatini ishlab chiqarishni joylashishi bo'yicha shaharlashishni o'zida aks ettiruvchi tarixiy jarayondir. Urbanizatsiya ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim tarkibiy

⁴ Martin Baldwin-Edwards. Migration in the Middle East and Mediterranean.-Athens: GCIM, 2005.- P.34.

⁵ Migration processes among developing countries: the Middle East.-USA: Massachusetts Institute of Technology, 1998.- P.29.

⁶ Загладин Н.В. Всемирная история: XX век. –Москва: Русское слово, 2006.-C.102.

qismlaridan biridir.

Zamonaviy urbanizatsiya umumjahon jarayoni sifatida ko'pchilik mamlakatlarga xos bo'lgan uchta umumiy jihatlar bilan ifodalanadi. Shulardan birinchi jihat - shahar aholisining ayniqsa kam rivojlangan mamlakatlarda yuqori sur'atlar bilan o'sishi. Dunyoda 1900 yilda mavjud jami aholisining salkam 14% i shaharlarda yashagan, bu ko'rsatkich 1950 yilda 19% ni, 1990 yilda 45% ni, 2000 yilda esa 51% ni tashkil etadi.

Ikkinci jihat - aholi va xo'jalikning asosan katta shaharlarda to'planganligi bilan bog'liq. Bunday holat avvalambor, ishlab chiqarishning xususiyati, uni ilm-fan, ta'lim-tizimi bilan bo'lgan aloqadorligining murakkablashuvi bilan bog'langanligi. Ma'lumki, katta shaharlar insonlarning ma'naviy va madaniy talablarini to'laroq qondiradi. Xilma-xil tovarlar va xizmatlar bilan yaxshiroq ta'minlanadi, mavjud axborot manbalariga yo'l olib beradi. Jahonda XX asr boshida (aholisining soni 100 mingdan ortiq) 360 ta katta shaharlar mavjud bo'lib, shularga jami aholining atigi 5% i to'g'ri kelgan, bunday shaharlarning miqdori 90-yillarning boshida 2,5 mingni tashkil etdi. 2000 yilda esa 3,5 mingdan o'tib ketdi. Ularga tegishli tarzda jami aholining 1/3 va 2/5 qismi tashkil etadi. Katta shaharlar ichida aholisining soni 1 mingdan ortiq bo'lgan yirik va juda yirik bo'lgan shaharlarni alohida ajratish qabul qilingan. Shunday shaharlarning soni XX asr boshida 10 ta bo'lgan, 80-yillarning boshida 200 dan, 2000 yilda esa 400 dan oshib ketdi. Mazkur shaharlar ichida supershaharlar (aholisining soni 5 mln. dan ziyod) miqdori 90-yillarda 30 tani, 2000 yilda esa 60 tani tashkil etdi. Hozirgi kunda ushbu shaharlarda salkam 0,5 mlrd. kishi yoki yer shari aholisining 80% dan ortiq qismi istiqomat qilmoqda⁷.

Uchinchi jihat - shaharlar hududining keskin kengayib, yoyilib ketishi bilan bog'langan⁸. Zamonaviy urbanizatsiya jarayoni uchun ayrim shaharlar va shaharchalardan shaharlar bilan qishloqlarni o'zida qamrab olgan shaharlar aglomeratsiyalariga, yirik shaharlarni qamrab olgan megapolislarga o'tish xos bo'lmoqda. Shaharlar aglomeratsiyalarining o'zagi vazifasini odatda poytaxtlar boshqa muhim sanoat markazlari va yirik dengiz portlari bajarmoqda.

Juda yirik shaharlar aglomeratsiyalari Mexiko, Tokio, San-Paulu, Nyu-York shaharlari atrofida shakllangan, shularning har birida 16 mln. dan 30 mln. gacha kishi istiqomat qiladi.

Hozirgi vaqtida ikki yoki undan ortiq aglomeratsiyalar hududining qo'shilib ketishi natijasida urbanizatsiyalashgan rayonlar va zonalar eng muhimi megapolislar vujudga kelmoqda. Urbanizatsiya darajasi bo'yicha jahondagi barcha mamlakatlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Yuqori darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar 1 shahar aholisining ulishi 50% dan yuqori;
2. O'rtacha darjada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar shahar aholisining ulushi 20%-50%;
3. Past jarayonda urbanzatsiyalashgan mamlakatlar shahar aholisining ulishi 20% dan kam⁹.

Yuqori darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar qatoriga Yevropaning barcha davlatlari, Avstraliya, Yangi Zelandiya hamda Shimoliy va Janubiy Amerikaning ko'pchilik mamlakatlari kiradi. O'rtacha darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlarning asosiy qismi Janubiy, G'arbiy, Markaziy va Janubi-Sharqiy Osiyo regionlari hamda Afrikada joylashgan. Past darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlarning ham ko'pchiligi Afrika va Osiyoda mavjud ekanligini ta'kidlab o'tish joiz.

Hozirgi vaqtida urbanizatsiya doirasi rivojlangan mamlakatlarda 7% ni rivojlanayotgan mamlakatlar 37% ni tashkil etadi, dunyo bo'yicha bu ko'rsatkich 51% ga teng¹⁰. Urbanizatsiya jarayonining o'sish sur'atlari mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik hamda urbanizatsiyalashganlik doirasiga bog'liq holda o'zgaradi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda shahar aholisining ulushi 75%-90% ga, ya'ni yuqori

⁷ Загладин Н.В. Истории России и мира в XX веке. –Москва: Владос, 2006.-C.18.

⁸ Martin Baldwin-Edwards. Migration in the Middle East and Mediterranean.-Athens: GCIM, 2005.- P.36.

⁹ Загладин Н.В. Истории России и мира в XX веке. –Москва: Владос, 2006.- C.20.

¹⁰ Martin Baldwin-Edwards. Migration in the Middle East and Mediterranean.-Athens: GCIM, 2005.- P.37.

darajaga yetganligi tufayli urbanizatsiyalashish sur'atlari ancha pasaygan, ayrim hollarda yirik shaharlardagi aholi soni kamaymoqda. Shunga qaramasdan, urbanizatsiya jarayoni iqtisodiy rivojlangan davlatlarda taraqqiy etishda davom etib, yangi-yangi shakllarning shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda urbanizatsiyalashish jarayoni shahar aholisining nisbatan past ulushga egaligi tufayli har tomonlama va hamma yo'naliishlarda rivojlanmoqda. Lekin mazkur mamlakatlarda urbanizatsiya jarayoning sifat ko'rsatkichlariga mutanosib emas. Shahar aholisi ko'p hollarda qishloqlarda ortiqcha bo'lib qolgan aholi hisobiga o'smoqda. Qashshoq qishloq aholisining katta qismi yirik va katta shaharlarning hududida joylashib kulbasimon urbanizatsiyaning tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Shunday urbanizatsiyaning shakllari Mexiko, Lenia, Manila, Dakka, Kalkutta, Bombey, Kinshasa va boshqa poytaxt shaharlar atrofida keng tarqalgan. Umuman urbanizatsiya jarayoni rivojlanayotgan mamlakatlarda boshqarib bo'lmaydigan holda taraqqiy etmoqda hamda demografik iqtisodiy va ekologik muammolarning chuqurlashishiga sabab bo'lmoqda. Atrof muhitning ifloslanishi umumiy hajmi 3/4 qismi to'g'ri keladi¹¹. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlar hayotga tadbiq etilmoqda, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa, moddiy mablag'larning yetarli emasligi mazkur muammolarni to'la to'kis hal etishga imkon bermayapti, ularda shahar aholisining soni va ulushi tez o'sadi. Shunga qaramasdan, jahon aholisining yarmiga yaqin qolqo aholi manzilgohlarida yashashmoqda. Ularning umumiy soni 15-20 mln ni tashkil etadi.

Qishloq aholisi asosan guruhashgan va alohida joylashgan qishloqlar bo'yicha taqsimlanadi. Bunda tarixiy va tabiiy shart-sharoitlardan tashqari iqtisodiy omillar ahamiyati katta bo'lganligini aytib o'tish lozimdir. Aholi taqsimlanishining guruhashgan shakllari dehqonchilik ayniqsa, haydalanadigan va sug'oriladigan dehqonchilik va rivojlangan region mamlakatlarga xosdir. Alohida joylashgan qishloqlar chorvachilik intensiv rivojlangan mamlakatlarda (AQSh, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Braziliya, Argentina) keng tarqalgan. Aholi joylashishining shakllari ham mavjud yaylov chorvachiligi rivojlangan hududlarning ko'pchiligidagi esa doimiy aholi manzilgohlari umuman barpo qilinmagan.

Yuqorida mamlakatlar aholisining ko'chib kelishi bo'yicha yetakchi hisoblansa, boshqa qator mamlakatlar, chunonchi, Irlandiya aholisining ko'chib ketishi bo'yicha dunyoda mashhur bo'lib qolgan. Irlandiya XIX-XX asrlarda aholining katta miqdorda ko'chib ketishi bo'yicha uch davrni boshdan kechirgan¹². Ushbu davrlar 1840-1900 yillarda qayd etilgan bo'lib, unda mamlakat aholisining mutloq soni 8,2 mln dan 4,5 mln kishiga tushib qoldi.

Tashqi migratsiyalar o'zlarining xususiyatlari, sabablari, hududiy qamrovi, davom etish davri bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Migratsiya xususiyatlari to'g'risida so'z yuritganda, avvalambor xohishga ko'ra va majburiy migratsiyalarga XVI-XIX asrlar davomida necha 10 minglab negr qullarining Afrikadan Amerikaga zo'r lab olib ketilishi misol bo'lishi mumkin.

Tashqi migratsiyalar asosan iqtisodiy sabab bilan bog'langan. Bunda yangi yerlarni o'zlashtirish maqsadida hamda ishchi kuchini shartnomalar bo'yicha boshqa mamlakatlarga yuborish bilan bog'liq migratsiya katta rol o'ynaganligini ta'kidlab o'tish joizdir. Birinchi turdag'i tashqi migratsiyalarda katta miqdorda aholining ko'chib ketishi Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Frantsiya, Skandinaviya mamlakatlari, Irlandiya, Pol'sha, Rossiya mamlakatlariga ko'chib ketishi AQSh, Kanada, Braziliya, Argentina, Uruguay, Chili, Avstraliya, Janubiy Afrika Respublikasiga xos yaralgan. Ikkinci turdag'i tashqi migratsiyalarda dastlabki davrlarda Xitoy va hindistonlik ishchilar asosiy rolni o'ynaganligini ta'kidlab o'tish lozim. Shularning katta jamoalari Janubi-sharqi Osiyo mamlakatlarida barpo etilgan. Hozirgi vaqtda Shimoliy Afrika, Janubi-g'arbiy Osiyo, Janubiy Yevropa ishchi kuchining katta miqdorining G'arbiy Yevropa va qisman Shimoliy Yevropa mamlakatlarida shartnoma ham ikkinchi turdag'i tashqi migratsiyalarga misol bo'lishi mumkin. Chunki shunday migratsiyalarning soni

¹¹ Martin Baldwin-Edwards. Migration in the Middle East and Mediterranean.-Athens: GCIM, 2005.- P.39.

¹² Волк С.С. Ближний Восток.- Москва: Просвещение, 1993.- C.14.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida 12-13 mln. dunyo bo'yicha esa 15 mln. kishini tashkil etadi¹³. (AQSh, Avstraliya, JAR, Fors ko'rfazi mamlakatlari) mazkur migrantlarning ichida yirik olimlar va mutaxassislar bo'lib, ularning soni salkam 1 mln. kishini tashkil etadi. Siyosiy sabablar ham tashqi migratsiyalarga katta ta'sir ko'rsatadi. Siyosiy migratsiya iqtisodiy va siyosiy vaziyati beqaror, inson huquqlari poymol etilayotgan mamlakatlarga xos bo'lgan va hozir ham shundayligicha qolmoqda.

Hududiy qamrovga qarab materiklarga va materik ichidagi migratsiyalarni ajratish qabul qilingan. Hozirgi vaqtida ikkinchi turdag'i migratsiyalar asosiy ahamiyat kasb etadi. Davom etish bo'yicha doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy migratsiya turlari mavjud. Sharhnomalar asosida amalga oshirilayotgan migratsiyalar vaqtinchalik migratsiyalar deb ataladi. Ikki oy yoki undan ortiq vaqt davomida dam olish, davolanish yoki boshqa mavsumiy turdag'i mehnat faoliyati bilan bog'liq migratsiyalar mavsumiy migratsiyalar deb ataladi. Doimiy migratsiyalar uy-joyining va ish joyining tamomila o'zgarishi bilan bog'liq aholi ko'chishlari bilan bog'liq bo'lib, u migratsiyalar ichida asosiy o'r'in egallaydi.

Xullas, kam rivojlangan mamlakatlarda sanoat ishlab chiqarishining qoloqligi, ishsizlikning yuqoriligi va natijada arzon ishchi kuchlarining to'planib qolishi ham migratsion jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Masalan, 1946-1957 yillarda Yevropadan 5900 ming kishi boshqa hududlarga (sanoat va qishloq xo'jaligining yangi o'choqlariga) ko'chib ketishgan bo'lsa, Shimoliy Amerika, ya'ni AQSh va Kanadaga 3200 ming kishi, Lotin Amerikasiga 1200 ming kishi, Afrikaga 300 ming kishi Avstriya va Okeaniyaga 1000 ming kishi ko'chib o'tgan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati

1. Migration processes among developing countries: the Middle East.-USA: Massachusetts Institute of Technology, 1998.- P.24.
2. Martin Baldwin-Edwards. Migration in the Middle East and Mediterranean.-Athens: GCIM, 2005.- P.8.
3. Загладин Н.В. Всемирная история: XX век. -Москва: Русское слово, 2006.-C.102.
4. Загладин Н.В. Истории России и мира в XX веке. -Москва: Владос, 2006.-C.18.
5. Волк С.С. Ближний Восток.- Москва: Просвещение, 1993.- C.14.

¹³ Волк С.С., Левин Г.Р. Энг янги тарих.-Тошкент: Ўқитувчи, 1995.-Б.143.